

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG‘ONA FILIALI**

XAMDAMOVA OYGUL MAXKAMJONOVNA

**HADIS MATNLARINING LINGVOSTILISTIK TADQIQI
(o‘zbek tilidagi tarjima matnlar asosida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in philological
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Xamdamova Oygul Maxkamjonovna

Hadis matnlarining lingvostilistik tadqiqi (o‘zbek tilidagi tarjima matnlar asosida)..3

Khamdamova Oygul Makhkamjonovna

Linguostylistic study of Hadith texts (based on translated texts in Uzbek).....27

Хамдамова Ойгул Махкамжоновна

Лингвостилистическое исследование текстов хадисов (на основе переводных текстов на узбекский язык).....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....53

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI FARG‘ONA FILIALI**

XAMDAMOVA OYGUL MAXKAMJONOVNA

**HADIS MATNLARINING LINGVOSTILISTIK TADQIQI
(o‘zbek tilidagi tarjima matnlar asosida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1PhD/Fi3066 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filialida amalga oshirilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muminov Sidikjon Mirsobirovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Odilov Yorqinjon Raxmonallyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Amonturdiyeva Shoira Ravshanovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 20 " mart " soat 8⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel: (+998973) 244-57-82. elektron pochta: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (474 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel: (+998973) 244-71-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 27 " fevral " kuni tarqatildi.
(2025-yil 27 " fevral " dagi 8 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.Mamajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

M.T.Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filol.f.n., professor

G.Z.Rozikova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida diniy matnlar leksikasi va frazeologiyasi, diniy leksik birliklarning lugʻaviy-maʼnaviy, uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish, ularni mavzu jihatdan tasnif qilish doirasida muhim ilmiy yangiliklar olib borilgan. Mavjud tildagi diniy matnlarning yillar mobaynida lingvistik tadqiqot obyektiga aylantirilishi natijasida koʻplab ilmiy izlanishlar yuzaga kelgan. Islom dini, ayniqsa, uning Movaraunnahr hududidagi namoyandalarning diniy va dunyoviy bilimlarni har tomonlama mustahkam egallaganligi hamda ularni butun dunyo sivilizatsiyasiga tadbiq qilib, insoniyat rivojlanishiga qoʻshgan ulkan hissiy ilm ahliga kunday ravshandir. Bugungi kunda tilshunoslik oldida turgan eng asosiy muammolardan biri mana shunday muqaddas matnlarning lingvistik va stilistik xususiyatlarini chuqur oʻrganish, tadqiq etish hamda ularni dunyo ilmiy jamoatchiligiga yetkazishdir.

Dunyo tilshunosligida diniy matnlar xalqlarning milliy-madaniy xususiyatlari, eʼtiqodi, yashash tarzi, etnik tarixi va estetik qarashlarini yaxlitlikda tadqiq etishga imkoniyat beruvchi muhim asos sanalgan. Dunyo tilshunosligida diniy matnlarni zamonaviy lisoniy metodlar asosida tadqiq etish soha taraqqiyotini taʼminlaydigan muhim omillardan hisoblanadi. Shuningdek, xalqimiz mustaqillikka erishgandan soʻng buyuk ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy-adabiy merosini har tomonlama oʻrganish oldimizda turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, butun dunyoga mashhur muhaddis olimlarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan hadis matnlari tilshunoslik jihatidan tadqiq etilishga muxtoj manbalarimizdan deb hisoblaymiz. Ayniqsa, oʻzbek tilidagi diniy matnlarni vazifaviy uslublar doirasida oʻrganish, ularning lingvistik va ekstralingvistik tomonlarini tadqiq etish hamda oʻzbek tili funksional-stilistik tizimida tutgan oʻrnini belgilash tilshunosligimizda dolzarb vazifaga aylandi.

Oʻzbek xalqi uzoq yillar kutilgan istiqlolni qoʻlga kiritishi tufayli oʻzining milliy, diniy-maʼnaviy merosini, tarixini tadqiq qilish baxtiga erishdi. Ushbu yillarda uni har tomondan oʻrganish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Zero, “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz”, deya bildirilgan fikrlari orqali maʼnaviyatimiz va qadriyatlarimizning ajralmas qismi boʻlgan islom dinining mazmun-mohiyatini xalqimiz ongiga chuqur singdirish masalasini koʻtardi. Shuningdek, oʻzining “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi”da taʼkidlangandek: “Imom Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” asari oʻz ahamiyatiga koʻra muqaddas Qurʼoni karimdan keyin ikkinchi oʻrinda turadigan moʻtabar kitob sifatida islom olamida tan olingan. Bu ulugʻ zotning gʻoyaviy boy merosini asrab-avaylash va oʻrganish, yosh avlodga bezavol yetkazish maqsadida Samarqandda Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etdik. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida Imom Termiziy nomidagi, Samarqandda Imom Moturudiy nomidagi ilmiy-maʼrifiy tadqiqot markazlari faoliyat olib bormoqda”¹. Yangi Oʻzbekiston sharoitida lingvistika fanini rivojlantirish, bu yoʻnalishdagi tadqiqotlarni takomillashtirish orqali yoshlarni ona tili va ona – Vatanga muhabbat, milliy anʼana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Mamlakatimizda

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida soʻzlagan nutqi.

o‘zbek tilini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari doirasida “Oliy ta’lim tizimida o‘zbek tili ilmiy maktablarning zamonaviy metodlarini o‘rganishni yo‘lga qo‘yish, tilning rivojlanish istiqbollari bilan bog‘liq ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiq etish” kabi vazifalar belgilangan².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida diniy matnlarni lingvistik jihatdan tadqiq etish bilan avvaldan shug‘ullanib kelingan. Jumladan, N.Mechkovskayaning “Til va din”³, A.Minnegaliyevaning “Tatar diniy-didaktik adabiyoti tili: islom yurisprudensiyasi traktati “Muxtasar al-Quduri” materiali asosida”⁴ nomli nomzodlik dissertatsiyasi, M.Sattarova, R.Nurmuxametova, Y.Yelezarovalarning “Diniy semantikali tatar frazeologizmlari”⁵ maqolasi, Z.Yaxyayevaning “Qo‘miq tilining diniy leksikasi va frazeologiyasi”⁶ va X.Kurbanovning “Chechen tilining diniy leksikasi”⁷ mavzusidagi nomzodlik ishlari, T.Iskovichning “Diniy uslubni kommunikativ-pragmatik va kategorial matniy

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6084 сонли Фармони // Ўзбекистон Қонун ҳужжатлари тўплами. 06/20/6084/1398.

³ Мечковская Н.Б. Пособие для студентов гуманитарных вузов. – М.: ФАИР, 1998. – С.352.

⁴ Миннегалиева А.М. Язык татарской религиозно-дидактической литературы: на материале трактата по исламской юриспруденции «Мухтасар ал-Кудури»: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Казань, 2007. – С.31.

⁵<https://www.gramota.net/article/phil20172048/fulltext> (Murojaat sanasi: 23.04.2024.)

⁶ <http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka#ixzz5jLiCg9r> (Murojaat sanasi: 11.02.2024)

⁷ Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987. – Б.22.

asoslarda janriy tizimlashtirish”⁸ nomli doktorlik dissertatsiyasi, Z.Xafizovning “Boshqird tili diniy leksikasining ma’noviy tasnifi”⁹ nomli tadqiqoti kabi ishlar yuqorida aytilgan fikrimizga dalil bo‘la oladi. Shunday ekan, ushbu sohada jahon tilshunosligida atroflicha tadqiqotlar olib borilgan. O‘zbek tilshunosligida esa ushbu mavzuni tadqiq etish ilmiy zaruriyat deb hisoblaymiz.

Diniy matnlarga tilshunoslik nuqtayi nazardan to‘xtalganda, dastlab, buyuk olim, arab tilshunosligi asoschilaridan Mahmud az-Zamaxshariyning ilmiy merosini ta’kidlash lozim. Zamaxshariyning fan olamidagi ulkan xizmatini hisobga olib, Sharq olimlari tomonidan “Ustod -ul-arab va ajam” (arab va g‘ayri arablar ustoz), “Faxr ul-Xorazm”, “Jorulloh” (Allohning qo‘shnisi) kabi unvonlar berilgan. Olimning “Al-foik fi g‘arib-il-hadis” (“Hadisdagi notanish so‘zlarni o‘zlashtiruvchi”) asari dastlabki hadis matnlarini tadqiq etuvchi lingvistik asardir. Bu asar lug‘at bo‘lib, hadis va adabiy asarlarda uchraydigan ma’nosini anglash qiyin bo‘lgan so‘zlarni izohlashga bag‘ishlangan. Olimning boshqa asarlari singari ushbu asarida ham so‘zlar alifbo tartibida berilib, ularning ma’nosi ochib beriladi va ularga she’riy yoki nasriy misollar keltiriladi ¹⁰.

O‘zbek tilshunosligining shakllanishiga munosib hissa qo‘shgan Abdurauf Fitratning ham ushbu mavzu yuzasidagi qarshlarini e’tirof etish zarur. Fitrat o‘zining “Tilimiz” maqolasida har bir tilning boyligi, ishlatilish doirasining kengligi bilan belgilanishi haqida fikr yuritadi. Olim ushbu maqolasida: “Musulmonliqlarning tubi, tomiri Qur’on bilan hadisdir”, deya ta’kidlaydi. Shuningdek, “Oila yoki oila boshqarish tartiblari”¹¹ asarida olim diniy va dunyoviy hukmlarga tayanib, oilaviy masalalarga izoh berib, o‘z fikrlarini asoslash uchun ushbu risolaning birinchi faslidayoq ellikka yaqin hadis matnlari va o‘ndan ortiq Qur’oni karim oyatlariga murojaat qiladi. Bundan xulosa qilamizki, diniy matnlar olim asarlarining tub mohiyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

O‘zbek tilshunosligida diniy matnlarga lingvistik tadqiqot obyekti sifatida murojaat qilish XX asrdan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. N.Uluqov 1997-yilda himoya qilgan “O‘zbekcha diniy matnlar ekzotik leksikasi”¹² mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi bevosita mana shu muammoning ma’lum qismini hal etishga bag‘ishlangan. A.O‘rozboyevning “Ogahiyning “Riyo ud-davla” asarida ijtimoiy-siyosiy leksika”¹³ nomli nomzodlik va “Ogahiyning tarixiy asarlari leksikasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarida ham diniy leksika haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, S.Karimov ¹⁴ , A.Shomaqsudov ¹⁵ , M.Umarxo‘jayev ¹⁶ ,

⁸ <https://urugi.urfu.ru/ru/science/rossija-istoriko-kulturnoe-nasledie/russkii-jazyk-i-literatura/tatjana-viktorovna-ickovich/> (Murojaat sanasi: 15.06.2024.)

⁹ <https://cyberleninka.ru/article/n/tematicheskaya-klassifikatsiya-religioznyh-leksem-v-bashkirskom-yazyke> (Murojaat sanasi: 15.06.2024.)

¹⁰ <https://cyberleninka.ru/article/n/tematicheskaya-klassifikatsiya-religioznyh-leksem-v-bashkirskom-yazyke> (Murojaat sanasi: 15.06.2024.)

¹¹ <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/mahmud-zamaxshariyning-lingvistik-qarashlari-yoqut-hamaviy-abu-hayyon-abdulloh-turkiy-ijodi>. (Murojaat sanasi: 05.12.2024.)

¹² Улуков Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1997. – Б.29.

¹³ Ўразбоев А.Д. Огахийнинг «Риёз уд-давла» асарида ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фанл. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2009. – Б.41.

¹⁴ Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадийи услуби: Филол. фанл. докт. дисс... автореф. – Тошкент, 1994.

¹⁵ Шомаксудов А. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988.

¹⁶ Мухторхон эшон Умархўжа. Диний атамалар ва иборалар. Оммабон қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016.

J.Omonturdiyev¹⁷, Sh.Maxmaraimova¹⁸, S.Elmurodova¹⁹ kabi olimlarimiz tadqiqotlarida muhim xulosalar berilgan. Tadqiqot olib borishimizda Sh.Yusupova²⁰, A.Aripova²¹, Sh.Amonturdiyeva²², N.Ismoilova²³ kabi olimlarimizning ilmiy izlanishlari ham katta ahamiyatga ega bo'ldi. Dissertatsiyada mazkur ilmiy ishlar o'rganilib, ulardan farqli ravishda diniy matnlar sirasidan o'zbekcha hadis matnlari tanlab olinib, lingvostilistik aspektda o'rganish masalasi o'rtaga qo'yilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusi bilan bog'liq ravishda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbekcha diniy matnlar, jumladan, hadis matnlarining til xususiyatlarini uslubiy tahlil qilish va shu orqali uning o'ziga xos jihatlari, o'zbek tili funksional uslublari tizimida tutgan o'rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek tilshunosligida diniy matnlar yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ko'lamini yoritib berish;

o'zbek tilshunosligida muqaddas diniy manba – hadislarni lingvostilistik tadqiq obyektiga aylantirish;

o'zbekcha hadis matnlarining shakliy- mazmuniy strukturasi – sanad va matn munosabatini o'rganish va ularga vazifaviy-uslubiy jihatdan munosabat bildirish;

hadis matnlarining leksik sath birliklari, emotsional-ekspressiv jihatlari uslubiy tomondan yoritib berish;

hadis matnlarida grammatik birliklarning stilistik va ekstralingvistik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti o'zbek tiliga tarjima qilingan hadis matnlari tanlangan bo'lib, Imom Buxoriyning "Al-jome' as-sahih", "Adab al-Mufrad", Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Hadis va hayot", "Ruhiy tarbiya" asarlari asos qilib olingan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi tarjima hadis matnlarining leksik-stilistik xususiyatlari, emotsional-ekspressiv, grammatik vositalarning funksional-uslubiy qo'llanilish muammolari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash va komponent, stilistik, sintaktik hamda leksik-semantik tahlil usullaridan foydalanilgan.

¹⁷ Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Маърифий-ирфоний истилоҳлар изоҳли луғати. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2014.

¹⁸ Махмараимова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.

¹⁹ Элмуродова С.С. Инглиз тилида диний-илоҳий тушунчаларни билдирувчи лексик birlikларнинг семантик таҳлили. 5A220102 – Лингвистика (инглиз тили). Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган магистрлик дисс. – Тошкент, 2012.

²⁰ Yusupova Sh. Diniy matn pragmatikasi. Monografiya. – Farg'ona: Classic, 2020.

²¹ Арипова А.Х. Нотиклик нутқининг лисоний-услубий воситалари: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2002.

²² Амонтурдыева Ш. Ўзбек диний матнининг функционал тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Термиз, 2020.

²³ Ismoilova N. Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlari (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" asari misolida): Filol. fanl. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. aftoref. – Qo'qon, 2023.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hadis matnlari o'zbek tili funksional uslublari bilan qiyoslanib, ularning so'zlashuv, badiiy, ilmiy, rasmiy va publitsistik uslublardagi matnlar bilan o'xshash va farqli jihatlari, jumladan, badiiylikka yaqinlashtiruvchi she'riy nutq parchalari, so'zlashuv uslublariga doir unsurlarning mavjudligi, hadis matnlarini o'ziga xos alohida diniy uslub ichidagi matn ekanligi haqidagi fikrlar asoslangan;

hadis matnlarining o'ziga xos turg'un shakliy-mazmuniy strukturasi – sanad va matn qismlariga ajralishi, sanaddagi qavatlangan nutq xodisasi lingvistik aspektda tadqiq etilishi lozim ekanligi dalillangan;

hadis matnlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri takror va parallellizm hodisasi, ularning affiksial, leksik va gaplar takrori kabi turlariga namunalar keltirilib, emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni oshirishdagi funksional xususiyatlari ochib berilgan;

hadis matnlari grammatik tahlil qilinib, mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, kirish so'z va birikmalar semantik guruhlarga ajratilgan, hadis matnlaridagi teologik qarashlarni ifodalashi va ularning uslubiy ma'noni ochib berishdagi o'rinlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

hadis matnlari bo'yicha to'plangan materiallar, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashmalar o'zbek uslubshunosligi, o'zbek nutqi madaniyati uchun eng muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi, stilistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslab berilgan;

hadis matnlari hozirgi o'zbek adabiy tili me'yorlari nuqtayi nazaridan o'rganilgan va boshqa funksional uslub matnlari bilan chog'ishtirilib, o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan;

hadis matnlarining lingvostilistik jihatlari tahlil etilib, o'zbek tilidagi diniy matnlarning alohida bir manbasi sifatida o'ziga xos xususiyatlari haqida muayyan xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi metodologik mukammalligi va metodik jihatdan to'g'ri ekanligi, matnlar tahlilining o'zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqib amalga oshirilganligi, olingan xulosalarning zamonaviy tilshunoslik oldiga qo'yayotgan talablarga muvofiq kelishi, qo'yilgan masalalarning aniqligi, jahon va o'zbek tilshunosligida funksional stilistikaga oid amalda isbotini topgan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o'zbek tili funksional stilistikasi tizimida yana bir alohida uslub – diniy uslubning mavjudligi haqidagi qarashlarning ilmiy asosga ega ekanligi dalillangani, hadis matnlarning leksik-semantik, semantik-uslubiy, grammatik xususiyatlari aniqlangani, o'zbek tili funksional uslublariga xoslanishi asoslangani, nazariy xulosalar va tahlil usullarining boshqa turkum matnlarni ham qiyosiy o'rganishda manba vazifasini o'tashi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati to'plangan materiallaridan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida – uslubshunoslik, tilning me'yoriy muammolari, nutq madaniyati va ritorikaga oid o'qitiladigan kurslarda foydalanish, oliy o'quv yurtlarida “O'zbek tili stilistikasi”, “Nutq madaniyati va mutolaa san'ati” fanlari

mavzulari doirasida maxsus kurslar o‘qishda, umumta’lim maktablarida ona tili darslarida qo‘shimcha material sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hadis matnlarining lingvostilistik tadqiqotiga bag‘ishlangan ushbu dissertatsiya quyidagicha joriylangan:

tadqiqotning ilmiy yangili, materiallaridan ommaviy axborot vositalari orqali bugungi kundagi insonlar ma’naviy-madaniy hayotida tutgan o‘rniga doir xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida yosh avlodni ma’naviy komillik, har tomonlama barkamol va istiqbolga sodiqlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda, targ‘ibot-tashviqot ishlari uchun ma’ruzalar tayyorlash hamda ijodkor yoshlar uchun turli seminarlar va tadbirlar tashkil qilishda foydalanildi, jumladan, 2023-2024-yillarda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim taraqqiyoti”, “Millat va ma’naviyat” eshittirishlari ssenariysini yozishda foydalanildi va suhbatlar uyushtirildi (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” Davlat muassasining 2024-yil 20-maydagi ma’lumotnomasi, 26-36-897-son). Natijada ushbu teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillar bilan boyitilgan;

tadqiqot materiallaridan 2021-2022-yillarda “O‘zbekiston davlat xareografiyasi akademiyasida amalga oshirilgan “O‘zbek milliy raqs san’atini targ‘ib etishga bag‘ishlangan veb sayt va multimedia mahsulotlari (elektron lug‘at) to‘plamini yaratish mavzusidagi IZ-2019081663 raqamli fundamental loyiha doirasida “O‘zbek milliy raqs terminlarining qisqacha o‘zbekcha-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi O‘zbekiston Davlat Xareografiyasi akademiyasi, 2024-yil, 20-maydagi № 1/04-96 ma’lumotnomasi). Natijada yoshlar hadis matnlaridan odob-axloq, milliy va millatlararo totuvlik, kiyinish madaniyati, hadis matnlarida uchraydigan qadimiy badiiy va san’atga oid so‘zlar, turlari haqida ma’lumot olishlari, ularda nutq madaniyatini rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan takomillashgan;

hadis matnlaridagi ijtimoiy guruhlar, yosh xususiyatlarini ifodalovchi morfologik, leksik, grammatik nutq birliklariga xos madaniy me’yor va qadriyatlarni aks ettiruvchi lingvokulturologik jihatlar o‘zbek tillaridagi lisoniy vositalar orqali asoslanganligi haqidagi xulosalardan 2021-2022-yillarda “Musiqqa va san’at muassasalari uchun “Bolalar raqslari” fanidan interaktiv – o‘quv-metodik qo‘llanmalar yaratish” mavzusidagi FZ – 2019081773 raqamli fundamental loyiha bajarishda, xususan, “O‘zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o‘zbekch-ruscha-inglizcha-fransuzcha izohli lug‘ati”ni yaratishda foydalanildi (O‘zbekiston respublikasi Madaniyat Vazirligi O‘zbekiston davlat xareografiyasi akademiyasining 2024-yil 20-maydagi № 1/04-97). Natijada yoshlarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, ularda nutq madaniyatini o‘stirish bilan bog‘liq ijodkorlikni rivojlantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan takomillashgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 8 ta, ulardan 5 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, 136 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Diniy matnlar lingvostilistik tadqiqining nazariy masalalari”** deb nomlanib, uch faslni o'z ichiga olgan. Mazkur bobning *“Diniy matnlarning dunyo va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi”* nomli birinchi faslida dunyo va o'zbek tilshunosligidagi diniy matnlarning uslubiy xususiyati, jumladan, hadis matnlari haqidagi fikr-mulohazalari o'rganib chiqildi va munosabat bildirildi.

Diniy matnlarni funksional-stilistik tomondan o'rganishda rus tilshunoslari yetakchilik qilishadi. Xususan, V.V.Vinogradov²⁴, M.N.Kojina²⁵, T.I.Viktorovna²⁶, N.B.Mechkovskaya²⁷, qardosh tillar tilshunosligida A.M.Minnegaliyeva²⁸, Y.N.Yelezarova²⁹, Z.B.Yaxyayeva³⁰, X.T.Kurbanov³¹, Z.R.Xafizovalar³² kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan va o'z fikr-mulohazalarini bildirgan.

Turkologiyada ushbu sohani – diniy matnlarni o'rganish bir qancha muddat ilgari boshlangan. Jumladan, Ebu't-Tayyib al-Lug'aviy, Abu Hilol al-Askeriy, Ibn Rashik al-Kayravoniy, Abdulqohir al-Churjoniy va et-Taftozoniy kabi tilshunos olimlar diniy matnlar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan, asosan, diniy manbalarning falsafa va ritorikasini rivojlantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Zahide Buyukatalay, Muhammed Gokmen, Sibel yildirim, Gursel Dursunlar tomonidan ham tadqiq etilgan. Turk tilshunosi Davron Ezik maqolasida, diniy matnlar tarkibiga kiruvchi aynan hadis matnlari haqida to'xtalib: “Hadislar til nuqtayi nazaridan o'ziga xos uslubga egadir, Rasululloh (s.a.v.) musulmonlar uchun mukammal namuna bo'lish barobarida odamlar bilan muloqot qilishda amal qilinishi lozim

²⁴ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи, Поэтика. – М., 1969. – С.5. Bu kabi ayrim ruscha materiallardan sitata keltirishda professor S.Karimovning tarjimalaridan foydalanildi.

²⁵ Кожина М.Н., Дускаева Л.Р., Салимовский В.А. Стилистика русского языка. Электронный ресурс. Учебник, 4-е изд. – М.: Флинта: Наука, 2008.

²⁶ <http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka#ixzz5jLiCg9rY> (Murojaat sanasi: 21.02.2024)

²⁷ Мечковская Н.Б. Пособие для студентов гуманитарных вузов. – М.: ФАИР, 1998. – С.352.

²⁸ <http://www.dissercat.com/content/yazyk-tatarskoi-religiozno-didakticheskoi-literatury-na-materiale-traktata-po-islamskoi-yuri#ixzz5b5PQjVGg> (Murojaat sanasi: 10.04.2024)

²⁹ http://www.dissercat.com/content/yazyk-tatarskoi-religi_ozno-didakticheskoi-literatury-na-materiale-traktata-po-islamskoi-yuri#ixzz5b5PQjVGg (Murojaat sanasi: 10.12.2023)

³⁰ <http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka#ixzz5jLiCg9rY> (Murojaat sanasi: 11.02.2024)

³¹ <http://www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-v-chechenskom-yazyke#ixzz5jLo2EwoC> (Murojaat sanasi: 20.04.2024)

³² http://elar.ufrfu.ru/bitstream/10995/38999/1/urgu1550_d.pdf (Murojaat sanasi: 20.04.2024)

bo'lgan bir sunnatni nozil qilganlar. Hadislar mumtoz arab tilining manbalaridan biri bo'lib, u payg'ambarning uslubini o'zida aks ettiradi. Payg'ambar (s.a.v.) ga tegishli bo'lgan iboralarni tilshunoslikning tadqiq etish nutq uslublariga xosdir"³³. Muallif, asosan, Payg'ambar (s.a.v.) ning nutqidagi bolalar bilan muloqot qilish uslublari haqida o'z fikrlarini bildirib, payg'ambar nutqida bolalar uchun alohida uslub borligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, ushbu manbani o'rganar ekansiz, nafaqat bolalar, balki yoshi ulug'lar, erkaklar, ayollar yoki hukmdorlar uchun alohida Payg'ambar (s.a.v.) ning muloqot uslubini kuzatishimiz mumkin.

O'zbek tilshunoslaridan esa S.Karimov³⁴, A.Shomaqsudov³⁵, M.Umarxo'jayev³⁶, N.Uluqov³⁷, J.Omonturdiyev³⁸, Sh.Maxmaraimova³⁹, Sh.Yusupova⁴⁰, S.Elmurodova⁴¹, A.Aripova⁴², Sh.Amonturdiyeva⁴³, N.Ismoilova⁴⁴ kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o'rganib chiqilgan va ularning fikr-mulohazalariga munosabat bildirilgan.

Tilshunos olim N.Uluqov o'z tadqiqotida aynan hadislar haqida to'xtalib, ularning badiiy, rasmiy, ilmiy uslublarga xos jihatlari mavjudligi, ammo shuning bilan uning "alohida" uslub ekanligini ta'kidlaydi⁴⁵.

A.Aripova "Notiqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari" mavzusida yozgan nomzodlik dissertatsiyasida notiqlikning funksional-mazmuniy ko'rinishlari sirasida diniy notiqlikni ham e'tirof etgan⁴⁶. Uni ulkan meros, urf-odat, tarixiy an'analarni o'z ichiga olgan nutq ko'rinishi sifatida baholagan.

Shuningdek, Sh.Amonturdiyevaning "O'zbek diniy matnining funksional-stilistik tadqiqi"⁴⁷ nomli filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi bizning tadqiqot ishimizda ham dastlab o'rganilgan manbalardan biri bo'ldi. Dissertatsiyada, diniy matnlarning funksional xususiyatlari aniqlanib, til birliklarining lingvistik va ekstralingvistik jihatlari, fonetik va imloviy xususiyatlari haqida mulohazalar berilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ilmiy izlanishimizda olimaning xulosalariga tayangan

³³ Hz.Peygamber'in (s.a.s.) çocuklarla ilgili anlatımlarının dilbilimsel açıdan değerlendirilmesi, Marife Diniy tadqiqotlar jurnali, Fikr-mulohaza. <http://marife.org/tr/pub/issue/67531/987542> (Murojaat qilingan sana: 22.05.2024)

³⁴ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б.8.

³⁵ Шомақсудов А. Ўзбек тили стилистикаси. 1 қисм. – Тошкент, 1974. – Б.20.

³⁶ Мухторхон эшон Умархўжа. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016. – Б.220.

³⁷ Улуқов Н. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1997.

³⁸ Омонтурдиев Ж. Маърифатнома. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2013.

³⁹ Махмараймова Ш. Ўзбек тили теоморфик метафораларининг қисқача концептуал луғати. – Тошкент: Чўлпон, 2018. – Б.4.

⁴⁰ Yusupova Sh., Diniy matn pragmatikasi. Monografiya. – Farg'ona: Classic, 2020. – B.113.

⁴¹ Элмуродова С.С. Инглиз тилида диний-илохий тушунчаларни билдирувчи лексик бирликларнинг семантик таҳлили. 5A220102 – Лингвистика (инглиз тили). Магистр академик даражасини олиш учун ёзилган магистрлик дисс. – Тошкент, 2012.

⁴² Арипова А.Х. Нотиқлик нутқининг лисоний-услубий воситалари: Филол. фанл. номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2002. – Б.10-17.

⁴³ Амонтурдыева Ш. Ўзбек диний матнининг функционал тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Термиз, 2020, – Б.160.

⁴⁴ Ismoilova N. Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlari (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Tafsiri Hilol" asari misolida): Filol. fanl. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. autoref. – Qo'qon, 2023, – B.15.

⁴⁵ Uluqov N. Ko'rsatilgan manba.

⁴⁶ Арипова А.Х. Нотиқлик нутқининг лисоний-услубий воситалари: Филол. фанл. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – Б.10-17.

⁴⁷ Амонтурдыева Ш. Ўзбек диний матнининг функционал тадқиқи: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) ...дисс. – Термиз, 2020. – Б.160.

holda, mazkur tadqiqotdan farqli ravishda hadislar va ularning uslubi, aynan ularga xos bo'lgan xususiyatlar izlanishimiz asosi qilib olingan.

N.Ismoilovning “Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari” (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asari misolida) nomli falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida hadislarga to‘xtalib: “Diniy matnlar guruhida hadislarning boshqa turlariga nisbatan turg‘un xarakterga ega ekanini alohida e’tirof etish zarur. Bu esa ularning Islom dinida Qur’oni Karimdan so‘ng ikkinchi asosiy manba ekanligi barobarida insoniyat qalamiga mansub bo‘lsa-da, matnining turg‘unligi, tahrir qilib bo‘lmasligi hamda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkin emasligi kabi jihatlari bilan muqaddas diniy manbalar guruhiga yaqin turadi”⁴⁸. Mazkur tadqiqotda ham diniy manbalarga chuqur tahlilga kirishilib, muayyan muhim xulosalar berilgan.

Mazkur bobning ikkinchi “*Hadis matnlarining uslubini belgilovchi lingvistik omillar*” deb nomlangan faslida hadis matnlarini lingvostilistik jihatdan tadqiq etar ekanmiz, uning uslubini belgilashga, aynan o‘zbek tili funksional uslublarining qaysi biri doirasiga kirishi yoki ularning qaysi biriga yaqinroq turishi ekanligini aniqlash nihoyatda murakkab jarayon ekanligi ma’lum bo‘ldi. Mazkur jihatlarni aniqlash uchun Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-sahih” asaridan olingan yuzlab hadis namunalari statistik usulda tahlil qilishga tortildi.

Shuningdek, HMLaridagi voqealarni hikoya qilish usulida yetib kelganligi: Sahoba Barro bunday deydilar: Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallam Madinaga kelib qarindoshlarinikiga tushdilar va Bayt ul-Muqaddasga qarb 16 yoki 17 oy namoz o‘qidilar. Aslida, Rasululloh sallollohu alayhi vasallam Makkadagi xonai Kabani qibla qilib namoz o‘qishni yaxshi ko‘rar edilar...; ularda uslubiy ta’sirchanlikni ifodalovchi iboralarning qo‘llanishi: ...Menga vahiy ba’zan qo‘ng‘iroq ovozi yanglig kelg‘usidir”, ... Varaqa ko‘p o‘tmay dor ul-baqoga rixlat qildi, kabilar ularni badiiy uslubga yaqinlashtiradi.

Hadis matnlaridagi ilgari surilgan diniy g‘oyalar, o‘z davridagi va keyinda kelguvchi insonlarni to‘g‘ri yo‘lga undash, jamiyat a’zolarini ilm olish, ijtimoiy hayotda faol bo‘lish kabilarga chorlov ma’nolari va shakllarining uchrashi uni publitsistik uslubga yaqinlashtiradi: Rasululloh sallollohu alayhi vasallamdan so‘radialar: “Qaysi xislatlar islomda eng yaxshidir?” Aytdilar: “Ochlarga taom bermog‘ing va tanigan yo tanimaganga salom bermog‘ing”.

Hadis matnlari tarkibida fihiy ilmga xos masalalar bo‘yicha fikrlarning aniq, tushunarli, qat’iy tarzda ifodalanishi, ba’zan muhaddisning ilmiy sharhlari, tushuntirishlarining mavjudligi yoki Payg‘ambar (s.a.v.) ning o‘zlari tomonidan unda islom dini arkonlarining berilishi va o‘z fikrlarini oyatlar bilan dalillashi: *Rasululloh sallollohu alayhi vasallam bunday deganlar: “Islom 5 dalil asosiga qurilgan. Iymon so‘zda ham amalda ham bo‘lmog‘i kerak. Iymon kuchaygaydir va susaygaydir. Dalili: Ollah taolo Qur’oni Karimda: “Iymonlarini yanada ziyoda qilsinlar, deb ularga hidoyatimizni ziyoda qildik”*, kabilar mazkur matnlarni ilmiy uslub doirasiga yaqinlashtiradi.

HMLarida ifodaning yozma va og‘zaki shakllarida ifodalanishidan qat’iy nazar aniqlikka, fikrning sodda ko‘rinishidan foydalanishga, aniq va ravon tilda ifoda

⁴⁸ Ismoilova N. Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Tafsiri Hilol” asari misolida): Filol. fanl. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ...diss. aftoref. – Qo‘qon, 2023. – B.15.

qilish, emotsional-ekspressiv bo‘yoqlarga ega so‘zlar qo‘llanishi doimiy sanalmasligi; namoz, azon aytilishi, nikohning rasmiylashtirilishi, me’ros masalasi kabilar ularni rasmiy uslubga yaqinlashtiradi: Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: *“Payg‘ambar sallolohu alayhi vasallam dedilar: “Beva to amr qilmasa va qiz rozilik bermasa, nikoh qilmanglar”*. Ashob so‘radialar: *“Qiz hayodan rozilik bera olamaydi, qizning roziligi qandaydir?”* Hazrat buyurdilarki: *“Qizning roziligi uning sukut saqlashidir”*; Said bin al-Musayib (r.a.) rivoyat qiladilar: *Payg‘ambar sallolohu alayhi vasallam dedilar: “Qizlarning otasi bor yoki yo‘qligidan qat’iy nazar, nikoh payti o‘zlaridan roziliklarini olmoq zarurdir”*.

HMLarining eng muhim xususiyatlaridan biri so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan dialogik nutqlar va Payg‘ambar (s.a.v.) va sahobalari (r.a.) kundalik hayoti, oilaviy turmush tarzida sodir bo‘lgan voqea va hodisalarning mavjudligidir. Bu esa HMLarida eng ko‘p uchraydigan so‘zlashuv uslubiga doir belgilar deb aytishimiz mumkin, ya’ni nisbatan boshqa funksional uslublardan ko‘ra so‘zlashuv uslubiga yaqin ekanligini ko‘rsatadi: Sahoba Maoz: Rasululloh sallolohu alayhi vasallam: *“Kel, biz bilan bir oz o‘tir, iymon haqida suhbatlashaylik!”*, deganlar. Ammo, hadislarda juda ko‘p qismida uxroviy voqealar tasvirlanadi va ularni aynan qaysi uslubga yaqinlik darajasini aniqlash qiyindir. Shuni ta’kidlash kerakki, garchi so‘zlashuv uslubiga yaqin matnlar hadislarning ko‘p qismni tashkil qilsa-da, ular insoniyatga ilm- ma’rifat, har jabhada yo‘l- yo‘riq bo‘lishi uchun aynan saqlangan, o‘zgartirib bo‘lmaydigan matnlardir. Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtirgan holda, shuni aytamizki, HMLarining til uslubi islom dini payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) va uning sahobalari, zamondoshlari uchun xos bo‘lgan, takrorlanmas, alohida muqaddas manba uslubidir.

Diniy va badiiy matnlar Islom dini g‘oyalarining asrlar davomida xalqimiz ongi-shuuriga singib borishi natijasida paydo bo‘lgan diniy e’tiqod badiiy-ijodiy tafakkur mahsuli bo‘lgan matnlar shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatib borgan.

Sharq adabiyoti namoyandalari o‘z ijodida hadislarga juda ko‘plab murojaat qilganlar. Masalan, Jaloliddin Rumiy *“Fihi mo fihi”* (*“Ichindagi ichingdadur”*)⁴⁹ asarida hadis va oyatlardagi o‘ta murakkab falsafiy qarashlarni soddalashtirgan, tushuntirishga va mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Abdurahmon Jomiyning *“Chihil hadis”*ini Alisher Navoiy turkiyzabonlar uchun *“Arbain”* (*“Qirq hadis”*)⁵⁰ nomi ostida yetkazib bergan. Zamonaviy adabiyotimiz vakillaridan Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov, Tohir Malik va Abdulla Oripov kabilar ijodida ham ko‘plab hadislarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, A.Oripov o‘z fikrlaridan birida *“she’riy hadislar”* atamasini qo‘llaydi. Shoir ijodida hadislarni she’riyatga solinganini uchratamiz, masalan, quyidagi hadis: *“Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: Rasululloh (s.a.v.): “Birovni (kurashib) yiqitgan polvon emas, balki g‘azablangan vaqtida jahlini yutgan odam polvondir!” – dedilar”* (*Buxoriy rivoyati*). Mazkur hadis mazmuni shoir satrlarida shunday ifodalanadi:

Bir suhbat chog‘ida Hazrat Payg‘ambar, o‘rtaga tashladi savol nogahon.

Aytdilar: – Zarurat tug‘ilsa magar kimni atardingiz asl pahlavon?

Sahobalar dedi: – Har kim doimo chekiga tushganin kelgandir olib.

Kurash maydoniga chiqqanda ammo, pahlavon atalgay kim bo‘lsa g‘olib.

Rasululloh dedi: – Ko‘hnadir jahon, turfa xil kuch-qudrat bordir olamda.

⁴⁹ Jaloliddin Rumiy. *Ichindagi ichingdadur*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B.248.

⁵⁰ Навоий А. Арбаъин. – Тошкент: Фан, 2000. – Б.10.

*Lekin, o'z jahlini yengolgan inson haqiqiy pahlavon erur olamda*⁵¹.

Ko'rinadiki, she'ning so'nggi ikki misrasiga hadisning asl mazmuni singdirilgan va qolgan misralarga shoirning o'z his-tuyg'ulari, munosabati qo'shilmagan. Bundan xulosa qilish mumkinki, o'z davrida badiiy adabiyot islomiy g'oyalarni targ'ib etishda muhim vosita bo'lgan. Shu boisdan ajdodlarimizning diniy mazmundagi ko'plab asarlari she'riy usulda yozilgan. She'riyatda diniy tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni qo'llash an'anasi bugungi kungacha yetib kelgan.

Diniy matnlarda ham badiiy matnlar singari tasvir vositalaridan tashqari ilmiy (fiqhiy), so'zlashuv uslubi va boshqa uslublarga oid jihatlarini kuzatishimiz mumkin. Ammo farqli tomonlaridan biri shuki, diniy matnlar turg'un – o'zgartirilmaydigan matnlar doirasiga kiradi.

Diniy matnlar va so'zlashuv uslubida nutq vaziyat dialog shaklida namoyon bo'ladi, nutq ko'pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo'ladi. Bu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati uning erkinligidir. Hadis matnlarida ham ushbu unsurlarni uchratishimiz mumkin, ammo hadis matnlaridagi aniqlik so'zlashuv yoki boshqa funksional uslublarga xos bo'lgan aniqlik darajasidan muayyan darajada farqlanadi. Bu diniy terminologiyaning faolligi, leksik elementlarning matnda bir ma'nosi bilan ishtirok etishi, sinonimik rang-baranglikka urg'u berilmasligi singari holatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Birinchi bobning uchinchi fasli "*Hadis matnlarida sanad va matn munosabati*" deb nomlanib, mazkur faslda dastlab, "*hadis*", "*muhaddis*" terminlarining lug'aviy ma'nolariga to'xtalib o'tilgan. "*Hadis*" va "*sunnat*" so'zlari Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning aytganlari, fe'l-atvorlari, axloqlari, taqdir (iqror)lari va payg'ambarlikka qadar bo'lgan hamda payg'ambarlik yillaridagi siyratlari, ya'ni hayot yo'llarini anglatishini tushuniladi⁵².

Hadis matnlarining o'ziga xos shakliy-struktur tuzilishi mavjud va bu boshqa diniy matnlar bilan jiddiy farqlanadi. Jumladan, ularning sintaktik qurilishi. Dissertatsiyaning 3-bobida to'xtalganimiz bois, ushbu bobda hadis matnlarining umumiy struktur qurilishini tahlil qildik. Hadis matnlari tarkib jihatidan ikki qismga bo'inadi: *isnod* (ayrim adabiyotlarda "*sanad*" tarzi ham uchraydi) va matndir. "Isnod (arab. – tirgak, dalil, asos) – islomda har bir hadisning tarkibiy qismi. I. – aytilgan so'zni aytuvchisiga bog'lashlik. Muhaddis olimlar sanad bilan isnodni bir ma'noda qo'llaydilar. Hadisning boshlanishida uni birinchi bo'lib aytgan va eshitgan kishidan boshlab, hadislarni to'plovchiga qadar barcha shaxslarning ismlari birma-bir ko'rsatib chiqiladi va bu hadisning asosi, dalili hisoblanadi. Hadisni naql qiluvchi kishilarning yashagan yillari va ijobiy sifatleri shartga to'g'ri kelsa, isnod to'g'ri, demak, hadis ham to'g'ri deb hisoblangan (ushbu holatni qavatlangan nutq deb atasak ham xato bo'lmaydi). Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, hadis matnlarida isnod nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi va bu uning o'ziga xos xususiyatidir: *Abu Zarr roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi*: "Rasululloh (s.a.v.) menga: "Qayerda bo'lsang ham Allohga taqvo qil. Yomonlikka yaxshilikni ergashtir. Bu uni o'chiradi. Odamlarga chiroyli muomala qil", dedilar". Bu xususida: "Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning maslakdoshlari, u inson bilan bir davrda yashab, islom dini

⁵¹ Орипов А. Хаж дафтари – Хикмат садолари. www.library.ziyounet.uz/

⁵² Islom ensiklopediyasi. Zuhriddin Husniddinov tahriri ostida, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – B.101.

ravnaqi uchun hissa qo‘shgan tarixiy shaxslarga nisbatan *roziyallohu anhu* (*erkaklar uchun*), *roziyallohu anho* (*ayollar uchun*), *roziyallohu anhum* (*birdan ortiq ko‘plikdagi shaxslarga*) ifodalari qo‘llaniladi. Ushbu ifodalar “undan Alloh rozi bo‘lsin”, degan ma‘noni anglatadi. Yozuvda esa (*r.a*) shaklida ifodalanadi: *Abu Hurayra (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilinadi...* Hurmat paradigmasiga asoslangan bunday ifoda shakllari aynan shunday nutq uchun xoslanganligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, sanadlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri Allohning va Payg‘ambar (s.a.v.)ning so‘zlari, Qur‘oni Karimga ⁵³ murojaat qilinadi, ya‘ni rivoyatni yetkazuvchilarning nomlari keltirilmaydi: *Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: “Olloh taologa islom dini eng sevimli dindir”*; *Olloh taolo oyati karimasida: “Olloh taolo sizlarning orangizdagi iymon keltirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug‘ qilg‘aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir, Olloh taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir”, deyilgan*. Yana boshqa oyati karimada esa: *“Yo Rabbii, ilmimni ziyoda qilg‘aysen, deb ayt!”*, *deyilgan (Buxoriydan)*. Ayrim hollarda sanadda keltiriladigan roviylar haqida matndan keyin ham keltirilishini kuzatamiz: *Janob Rasululloh: “Alloh taolo yaratmagan birorta ham jon yo‘qdur”, deb aytgan erkanlar. Buni, Mujohidning aytishiga qaraganda, Qaz‘a Abu Sa‘iddan eshitgan ekanlar (Buxoriy rivoyati)*⁵⁴.

Hadis matnlarining “*matn*” deb nomlanuvchi qismida esa, mana shu hadisdan ko‘zlangan asosiy mazmun yetkaziladi. Matn (arab. – bel, tekst (o‘zbek. matn) – hadis istilohida sanadning nihoyasi, ya‘ni ma‘nolardan tashkil topgan hadisning lafzlari. Jumladan: Hazrat Umar roziyallohu anhu bunday deganlar: *“Boshliq bo‘lmasingizdan avval ilmni chuqur o‘rganing! Rasululloh (s.a.v.)ning sahobalari yoshlari ulg‘ayganda ham ilm o‘rganganlar”* (Buxoriy rivoyati).

Hadis matnlarining shakliy-mazmuniy o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, ularning tarkibida she‘riy nutqning mavjudligidir. Barro roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: *“Rasululloh (s.a.v.) (Xandaq kuni) tufroq tashiyotib bunday deydilar:*

*“Hidoyat topmas erdik, qilmasang sen hidoyatlar,
Qilmas erdik xayr-u ehson, qilmas erdik ibodatlar.
Ulug‘vorlik ado etgil mudom bizga xudovandim,
Ro‘baro kelganda dushman, bizga baxsh et matonatlar.
Adovat birla bizga necha bor zulm qildi kuffor,
Fitna istar bo‘lsa, o‘zni ayladik biz himoyatlar”* (Buxoriy rivoyati).

Bunda asosiy ko‘zlangan maqsad, jang oldidan Yaratganga iltijo ma‘nosi va nutqning tinglovchilariga dalda berish, matonatli bo‘lishga chorlash ma‘nosi ham mavjuddir va ushbu she‘riy nutq voqelanayotganda, Payg‘ambar alayhissalomning “tufroq tashiyotib” aytganligini, ya‘ni mehnat jarayonida aytilganligini – ekstralingvistik holat yuzaga chiqayotganini guvohi bo‘lamiz.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Hadislarning leksik-stilistik tahlili**” bo‘lib, bobning birinchi fasli *“Hadis matnlarida qo‘llanuvchi leksik birliklar va ularning semantik xususiyatlari”* deb ataladi. Hadis matnlari uchun xos bo‘lgan elementlarni leksik – semantik guruhlash asosida o‘rganib chiqish, ularning ma‘no va funksional-

⁵³ Куръони Карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва изоҳлар муаллифи Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёти, 2001. – Б.618.

⁵⁴ Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил Ал-Бухорий, Ал-Жомий ас-саҳиҳ. – Тошкент: Қомуслар бош тахририяти, 1991. – Б.403.

stilistik imkoniyatlarining qay darajada kengayganligi borasida muayyan xulosalarga kelingan. Quyida hadis matnlaridagi leksik birliklarning ma'lum qismi – diniy-teologik so'zlarning lingvistik tabiati, ularning funksional-stilistik jihatlarini tahlil qilishga harakat qildik. Jumladan, 1. Yaratgan nomlari: Alloh so'zi, Haq so'zi, Robb so'zi, Rohman so'zi va b. 2. Payg'ambar nomlari: Odam Safiyulloh, Ibrohim Halilulloh, hazrati Ismoil alayhissalom, Iso alayhissalom, Hazrati Iso, Hazrati Yahyo, Hazrati Idris, Horun alayhissalom, Muso alayhissalom, Yunus alayhissalom kabi: "...Rasuli akram alayhissalom shunday marhamat qilganlar: "Men sizlarga ismi A'zamni qaysi ekanligini aytaymi? Bu Yunusning: "La ilaha illa anta subhaanaka inniy kuntu minaz zolimiyn", deb qilgan duosidir" (Hokim rivoyat qilgan). 3. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ni ifodalovchi va u zotga xos so'z hamda birikmalar: Rasululloh (s.a.v.), Nabiy (s.a.v.), Allohning Rasuli kabi: Muoviya roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "*Nabiy (s.a.v.): "Alloh kimga yaxshilikni iroda qilsa, uni dinda faqih qilib qo'yadi..."*" (Buxoriydan). 4. Muqaddas kitoblar nomlari va ularga oid so'zlar: Tavrot, Injil, Qur'on, Qur'oni Karim, sura, "Toho" surasi, oyat, qiroat. 5. Ibodat va diniy amaldorlarga oid leksemalar. Ibodat, toat, takbir, namoz, rakat, ruku', sajda, juma namozi, tavof, ziyorat, g'usl, tahorat, fотиha, xijrat, xutba, mahr, halol, harom, farz, gunoh, savob va b. 6. Dinga oid shaxs nomlari: hoji, sahoba, imom, xatib, obid, ummat, mo'min, mo'mina, musulmon, solih, soliha, avliyolar, taqvolik olimlar, amiral mo'minin, kofir, murtad, mushrik, munofiq: Anas ibn Molikdan rivoyat qilinadi: "*Rasululloh (s.a.v.): "Ilm talab qilish har bir musulmon zimmasiga yuklangan farzdir", dedilar*" (Imom Ahmad, ibn Moja); Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "*Nabiy (s.a.v.): "Mufarridlar o'zib kettilar", dedilar. "Mufarridlar kim, ey Allohning Rasuli?", – deyishdi. "Allohni ko'p zikr qiladigan erkak va ayollar", – dedilar*" (Ruhiy tarbiya). 7. Oxirat va dunyo bilan bog'liq nomlar: oxirzamon, oxirat, qiyomat kuni, jannat, do'zax, dunyo va oxiratni anglatuvchi leksemalar: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "*Nabiy (s.a.v.): "Kim ilm talab qilish yo'liga tushsa, Alloh unga jannatning yo'lini yengillashtiradi*" (Muslim rivoyati). 8. Chuqur diniy e'tiqod, valiylik bilan bog'liq so'z va birikmalar: botiniy ahvol, ruhoniyyatlar, ixlos, oliy aloqalar, ulug' sifatlar, avliyo, botiniy tavajjuh, munojot qilmoq, tahajjud, xushu' qilmoq, Allohning rahmati: "*Abu Bakr (r.a.) namozi, ro'zasi va sadaqasi bilan qolgan As'hobdan Afzal ko'rilgani yo'q, balki qalbidagi iymoni tufayli mukarram bo'ldi*" (Buxoriy rivoyati). 9. Islom dini bog'liq joy va sana (kun, oy) nomlari: Baytulloh, masjidul Harom, masjidul Aqso kabi: Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "*Rasululloh (s.a.v.) dedilar: "Arafa kuni Alloh osmonga tushadi va ular ila farishtalarga maqtanib: "Bandalarimga qaranglar! Turli joylardan sochlari to'zigan, g'uborga belangan, oftobda qolgan holda huzurimga keldilar. Sizlarni guvoh qilamanki, albatta, Men ularning gunohlarini kechdim", deydi*" (Buxoriy rivoyati).

"*Hadis matnlarida shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra farqlanuvchi leksemalarning qo'llanishi*" fasli fikrning aniq, ravon va ta'sirchanligini oshirish uchun Payg'ambar (s.a.v.) nutqida, asosan, sinonim, antonim leksemalar haqidagi fikrlar bilan boshlangan. Hadis matnlarida so'zlarning shakl va ma'no munosabatining ifodalanishida paronimlar va omonim leksemalarning qo'llanilishi ko'zga tashlanmaydi. Agarki, mavjud bo'lgan holda ham biz olib borgan tadqiqotlar hadis matnlarining arab tilidan o'girilgan tarjimalar asosida olib borilganligi sababli

omonimiya va paronimiya holatlarini o‘zbek tili uchun xos deb hisoblaymiz. Ma‘lumki, sinonimlarning eng muhim stilistik vazifasi fikrni o‘ta aniq ifodalash vositasi bo‘lishdir. Quyida keltirilgan namunadan ham kuzatamizki, hadis matnlarida sinonim leksemalarning faol qo‘llanilishi so‘zlovchining nihoyatda so‘z tanlashga xushyor ekanligidan dalolat beradi: *“Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v.): “Birortangiz (qulga): “Egangni qornini to‘ygaz!”, “Egangni yuvintirib qo‘y!”, “Egangga suv keltir!”, – deb ayt mangiz (chunki haqiqiy egalik Alloh taologagina xosdir!). Buning o‘rniga “janobim” yoki “mavlom”, deb aytingiz! Birortangiz: “qulim” yoki “cho‘rim” – deb ayt mangiz (chunki inson Alloh taologagina qul, ya‘ni bandadir). Buning o‘rniga: “Bolam”, “qizim” yoki “g‘ulomim”, – deb aytingiz!”, – dedilar”* (Buxoriy rivoyati).

Hadis matnlarida antonimlarni qo‘llash ham juda unumli bo‘lib, ular matnning ilmiyligi, ta‘sirchanligi hamda mazmun-mohiyatini ochib berishda, ular belgi, voqea-hodisa va shu kabilarni keskin qarshilantirish, kontrast obrazlar yaratish uchun xizmat qilgan: *No‘mon ibn Bashir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Ogoh bo‘lingkim! Albatta, jasadda bir parcha go‘sh t bordir. Qachon u solih bo‘lsa, jasadning hammasi solih bo‘lur. Qachon u buzuq bo‘lsa, jasadning hammasi buzuq bo‘lur. Ogoh bo‘lingkim! O‘sha narsa qalbdir”, dedilar”*⁵⁵.

Mazkur faslda hadis matnlaridagi ko‘chim turlariga to‘xtalib, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabilarga misollar topilib, tahlil qilingan. Masalan, metaforalar ko‘proq Payg‘ambarimiz (s.a.v.) va sahobalar (r.a.lar) nutqida uchraydi. Ma‘lumki, Rasululloh (s.a.v.) islom dinining ilk voizlaridan hisoblanib, avvalo, o‘zlari barchaga o‘rnak bo‘lishlari lozim edi. Shu boisdan ham nihoyatda xulqlari va so‘zlagan nutqlari chiroyli, ravon, aniq, ta‘sirchan bo‘lgan: Muoz ibn jabal roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: *“Kiyim eskirib yirtilganidek, Qur‘on ham ba‘zi qavmlar qalbida eskiradi...”* (Z.Rahim, Qur‘on qalblar shifosi. – B.273. Dorimiy rivoyati). Ushbu matndagi metaforada mazmunan o‘xshashlik mavjuddir.

Shuningdek, mazkur bobda tilning turg‘un birikmalariga, jumladan, iboralarning hadis matnlari va ularning ma‘nosi, uslubiy ta‘sirchanligidagi o‘rni haqida namunalar tahlil qilindi: Jumladan, *beqiyos – yer bilan osmoncha, xursand qil – ko‘nglini ko‘tar* kabi: Rasululloh (s.a.v.): *“Ota-onangizni oldiga borib ko‘nglini oling”* (Buxoriy rivoyati). Mazkur matnda ham *ko‘nglini olmoq* iborasi *qaramoq* leksemasiga nisbatan bir muncha ma‘no ottenkasi kuchlidir. Bunda ota-onaga shunchaki jismonan qarash, yordamlashish ma‘nosidan ko‘ra ularning xizmatini qilayotganda chin dildan qilinishi va bu ishni ota-onaning ko‘ngillari, qalblarini xursand qilgan holda bajarish lozimligi uqdirilmoqda. Jobir ibn Abdulloh rivoyat qiladilar: *“Rasululloh (s.a.v.) bizga: “Agar bir ishga bel bog‘lasangiz, avval ikki rak‘at farzsiz namoz o‘qingiz...”* (Buxoriy rivoyati). Mazkur hadisda Payg‘ambar (s.a.v.) nutqida *bel bog‘lasangiz* iborasi qo‘llanilib, ushbu ibora *qilsangiz, bajarsangiz* leksemalari ma‘nosiga, shuningdek, kishining o‘zi qilmoqchi bo‘lga ishiga yanada astoydil, kerak bo‘lsa, bu ishni boshlashdan oldin unga ibodat ruhi bilan kirishish lozimligi kabi uslubiy ma‘nolarni yuklamoqda.

Hadis matnlarida o‘zbek tilidagi barqaror birikmalar tarkibiga kiruvchi maqollarga o‘xshash siqiq nutq holatini ham kuzatishimiz mumkin. Ammo bu o‘zbek tilidagi maqollardan farqli ravishda, muallifli bo‘lib, uning muallifi aksariyat hollarda Rasululloh (s.a.v.)dirlar, ya‘ni u zotning tillaridan aytilgandir. Jumladan,

⁵⁵ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiiy tarbiya, 1-kitob. – Toshkent: Hilol-nashr, 2023. – B.69.

quyidagi namunaga e'tiborimizni qaratsak: Abu Sa'id roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Nabiy (s.a.v.): *"Qoqilmaguncha halim bo'lmas, tajriba ko'rmaguncha hakim bo'lmas"* (Buxoriy rivoyati). Ushbu matn ham deyarli o'zbek xalq maqollariga yaqindir.

Dissertatsiyaning *"Hadis matnlarida o'xshatishlarning uslubiy imkoniyatlari"* faslida hadis matnlarida Rasululloh (s.a.v.)ning nutqidagi o'ziga xos xususiyatlardan yana biri – mazmunni yaxshiroq anglatish, tushuntirish uchun tasviriy-o'xshatishlardan mohirona foydalanganligidir. Ushbu badiiy o'xshatish va qiyoslashlar yanada u zotning nutqlarini jozibali qilgan. Quyidagi hadis matnlarida ushbu o'ziga xos jozibani kuzatishimiz mumkin: *"Rasululloh (s.a.v.): "Olooh taolo menga yuborgan hidoyat singari ilm ham ko'p yoqqan yomg'irga o'xshaydir. Ba'zi yer sof, unumdor bo'lib, yomg'irni o'ziga singdiradi-da, har xil o'simliklar, ko'katlarni o'stiradi va ba'zi yer qattiq bo'lib, suvni emmasdan o'ziga to'playdir, undan Alloh taolo bandalarini foydalanitirgaydir. Odamlar suvdan ichgaydirlar, ekinlar va hayvonlarni sug'orgaydirlar. Ba'zi yer tekis, taqir bo'lib, suvni o'zida tutib qolmagaydir. Bularni quyidagicha muqoyasa (qilgaydir) qilish mumkindir. Bir kishi Alloh ilmini (islomni) teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Alloh yuborgan hidoyatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatadir. Ikkinchi bir kishi ham ilmni o'rganib, odamlarga o'rgatadir. Ammo o'zi amal qilmaydir. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydir. Birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir"* (Buxoriydan). Mazkur namunada qo'llangan o'xshatishlar nihoyatda sodda, ravon va shu bilan birga fikrni o'ta aniq ifodalashi bilan nutqqa badiiylik baxsh etgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi **"Hadis matnlarining grammatik-stilistik tahlili"** deb nomlanib, *"Hadis matnlarida morfologik vositalarning lingvostilistikasi"*, *"Hadis matnlarida sintaktik vositalarning lingvostilistikasi"*, *"Hadis matnlarida monologik va dialogik nutq shakllarining uslubiy imkoniyatlari"* fasllaridan iboratdir.

Tadqiqotning o'rganish obyekti o'zbek tilidagi hadis manbalari bo'lganligi bois, hadis matnlarini ham o'zbek tili morfologik sath birliklari yuzasidan tahlil qilindi, jumladan, ot leksemalar turkumiga "predmetlik" tushunchasi bilan bog'liq son, kelishik, egalik, turlash, kichraytirish-erkalash, qarashlilik kabi morfemalari mansubdir. Ma'lumki, otning ma'no turlari uning bir turdagi shaxs, predmet, hodisa, joydan birini yoki ularning umumiy nomini bildirishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi, ya'ni atoqli va turdosh otlar. Hadis matnlarida atoqli otlar Yaratgan (Alloh)ning go'zal ismlari, payg'ambarlar, farishtalar, sahobalarning ismlari, Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari, faoliyatlari bilan bog'liq ismlar va shaxs nomlari (u zot bilan zamondosh bo'lgan qo'shnilar, dushmanlari va hokazo), joy nomlari kabi guruhlarga bo'linib, tadqiq etildi, ulardagi stilistik ma'nolar aniqlandi.

Yaratgan-Allohning nomlari. "Alloh toq bo'lgani va toqni yaxshi ko'rgani uchun ham Uning go'zal ismlari to'qson to'qqizta bo'lgan. Kim o'sha to'qson to'qqiz ismni yod olsa, jannatga kiradi. Bundan ko'zda tutilgan murod shundayki, bu go'zal ismlarni yod olgan kishi ularni doimo zikr qilib yuradigan banda bo'ladi. Ammo bu "Alloh taoloning to'qson to'qqiztadan boshqa ismi yo'q, degani emas. Albatta, Alloh taoloning ismlari ko'p. Ba'zi ulamolar ularni sanab, mingtagacha yetkazishgan", – deydi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o'zining "Ruhiiy tarbiya" asarida (3-juz, Xulqlanish. – B.11.). Quyidagi hadisi sharifda Alloh

taoloning go‘zal ismlari sifatida mashhur bo‘lgan to‘qson to‘qqiz ismining zikri keladi: *Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (s.a.v.): “Allohning to‘qson to‘qqiz ismi bor. Bir kam yuzta. Kim ularni to‘liq bilib olsa, jannatga kiradi. U Undan o‘zga ilohu ma‘bud yo‘q Allohdir. Rohman, Rohiym, Malik, Quddus, Salom, Mu‘min, Muhaymin, Aziyz, Jabbor, Mutakabbir, Xoliq, Bori’, Musovvir, G‘affor, Qahhor, Vahhob, Razzoq, Fattoh, Aliym, Qobiz, Bosit, Xofiz, Rofi’, Mu‘izz, Muzill, Samiy’, Basiyr, Hakam, Adl, Latiyf, Xobiyr, Haliym, Aziym, G‘afur, Shakur, Aliy, Kabiyr, Hafiyz, Muqiyt, Hasiyb, Jalil, Kariym, Roqiyb, Mujiyb, Vosi’, hakiym, Vadud, Majiyd, Bo‘is, Shahiyd, Haqq, Vakiyl, Qoviy, Matiyn, Valiy, Hamiyd, Muhsiy, Mubdi’, Mui‘yd, Muhyiy, Mumiyt, Hayy, Qayyum, Vojid, Mojid, Vohid, Somad, Qodiyr, Muqtadir, Muqaddim, Muaxxir, Avval, Oxir, Zohir, Botin, Voliy, Muta‘liy, Barr, Tavvob, Muntaqiyim, Afuvv, Ro‘uf, Malikul Mulk, Zul Jalali val Ikrom, Muqsit, Jomi’, G‘aniy, Mug‘niy, Moni’, Zorr, Nofi’, Nur, Hodiyy, Badiy’, Boqiy, Voris, Roshiyd va Sobur”, dedilar”* (Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq, *Ruhiy tarbiya. – B.12.*). Ushbu hadisda Xudoning nomlari atoqli ot sifatida olishimiz mumkin.

Son so‘z turkumi. Hadis matnlarida sonlar, asosan, otlar bilan birga qo‘llaniladi va alohida kelganda mavhum ma‘no ifodalaydi. Miqdor va tartibni bildiruvchi sonlar ko‘p qo‘llaniladi. Tartib sonlar adabiy tildagi kabi predmetlarning sanoqdagi tartibini, ketma-ketlikni bildiradi. Ular sanoq sonlarga *-nchi (-inchi)* affiksini qo‘shish bilan hosil qilinadi.

Hadis matnlarida arab leksikasiga oid hisob so‘zlar (numerativlar) ko‘plab uchraydi: Abu Hurayra roziyallohu anhu rivoyat qiladirlar: *“Rasululloh (s.a.v.): “Kimki janozada qatnashib, janoza namozini o‘qig‘aydir, unga bir qiyrot savob tekkaydir, kimki janoza namozini o‘qib, mayyit dafn etilguncha ketmay tursa, unga ikki qiyrot savob tekkaydir?”*, – dedilar. *Shunda odamlar: “Yo Rasululloh, ikki qiyrot qanchadir?”*, – deb so‘rashdi. *Janob Rasululloh: “Ikkita katta tog‘dek kelur”, – dedilar”* (Buxoriy rivoyati). Ammo hozirda bu hisob so‘zlar deyarli o‘zbek va arab tilida qo‘llanilmaydi.

Hadis matnlarida sifatlar, asosan, shaxsga nisbatan beriladigan sifatlarga *mo‘min, musulmon, munofiq, kofir, jannati (-y)* singari leksemalarni uchratishimiz mumkin va ular aksar namunalarda otlashgan holatda qo‘llangan: *“O‘zingiz yaxshi ko‘rgan narsani birodaringizga ravo ko‘rmaguningizcha hech biringiz chinakam mo‘min bo‘la olmaysiz”* (Buxoriy rivoyati).

Hadis matnlarida olmoshlarning qo‘llanishida kishilik olmoshlari salmoqli o‘rinni egallaydi. Bunda hurmat ma‘nosida *sen* o‘rnida *siz* shaklida, kamtarlik ottenkasini ifodalash uchun *men* o‘rnida *biz* qo‘llanilgan. Shuningdek, ba‘zan ko‘plik ma‘nosini ta‘kidlash uchun *biz, siz* olmoshi *bizlar, sizlar* shaklida qo‘llaniladi: *Rasululloh (s.a.v.) aytdilar: Hazrat Ali roziyallohu anhu: “Bu dunyo bizdan yuz o‘girdi, oxirat ersa chehrasini qaratdi. Har ikkalasining ham o‘ziga mansub odamlari mavjud bo‘lib, sizlar oxiratga mansub odam bo‘linglar, dunyoga mansub bo‘lmanglar. Bugun amal mavjud, hisob-kitob yo‘qdur, ertaga ersa hisob-kitob mavjud, amal ersa yo‘qdur!”*, – deb aytgan erkanlar” (Buxoriy rivoyati).

Hadislarda ravish so‘z turkumidan ham unumli qo‘llanilgan. Tadqiqotda ravish so‘z turkumining ma‘noviy guruhlari jihatidan ko‘rib chiqilib, holat, o‘rin, daraja-miqdor, maqsad va sabab ravishlariga ajratilib, uslubiy xoslanishlari aniqlandi.

Hadislaridagi eng faol soʻz turkumi feʼl boʻlib, ular nimani atab kelishiga qarab harakat va holat feʼllariga boʻlinadi. Shaxs va narsalarning jismoniy faoliyati natijasida roʻy bergan harakatni bildiruvchi feʼllar *“harakat feʼllari”* hisoblanadi. Predmetlarning bir holatdan ikkinchi bir holatga oʻtishlari jarayoni va shaxslarning ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qiluvchi feʼllar *“holat feʼllari”* sanaladi. Va tadqiqotda toʻrtta asosiy: nutqiy, aqliy, jismoniy, holat feʼllariga ajratilib tadqiq etildi. Shuningdek, mazkur qismda har bir soʻz turkumi grammatik birliklari yuzasidan hadis matnlari oʻrganildi va oʻziga xos xususiyatlari aniqlandi.

“Hadis matnlarida sintaktik vositalarning lingvostilistikasi” faslida hadis matnlari sintaktik-stilistik nuqtayi nazardan oʻrganildi. Hadis matnlari sintaksisidagi uslubiy farqlanishlar, asosan, gapning ifoda maqsadiga koʻra turlarida yaqqol seziladi. Masalan, darak gaplarda. Barcha matnlarda boʻlgani kabi hadis matnlarida darak gaplar koʻp ishlatiladi: *“Oʻzingiz yaxshi koʻrgan narsani birodaringizga ravo koʻrmaguningizcha chinakam moʻmin boʻla olmaysiz”*. Bu kabi faol qoʻllanilishlar hadis matnlarida keltirilayotganligining asosiy sabablaridan biri, uning tub mohiyatida ommani xabardor qilish eng muhim vazifa ekanligini keltirishimiz mumkin.

Hadis matnlarida, shuningdek, soʻroq gaplar: *“Rasululloh (s.a.v.)dan soʻradilar: “Qaysi xislatlar islomda eng yaxshidir?”*. Hadis matnlarida ular bir yangilik, ilm, muammoni hal qilish uchun ishlatiladi.

Hadis matnlarda dialogik xarakterdagi soʻroq va darak gaplar ham uchraydi. Mavzuning mohiyatini ochib berishda, tasvirlangan voqea-hodisalarning adresat koʻz oʻngida gavdalanishida bu gaplar muhim vosita hisoblanadi. Bunday soʻroq gaplarning *“Yo Rasululloh”* – deb boshlanishi hadis matnlari sintaksisining oʻziga xos jihatidir.

Hadislarda buyruq gaplar biror diniy mavqe, mansab yoki unvonga ega boʻlgan kishilar tomonidan boshqa shaxslarga nisbatan qoʻllanadi: Sahoba Molik: *Rasululloh (s.a.v.): “Boringiz endi, uyingizga qaytib, oila aʼzolaringizga ham oʻrgatingiz!”*, – deb bizga aytdilar”, – degan (Buxoriy rivoyati).

Hadis matnlari tilida muhim oʻrin tutuvchi sintaktik vositalardan yana biri undalma – ritorik murojaatlardir. Bu murojaatlar Allohga, sahobalar yoki ommaga qaratilgan boʻladi va yaxlit gapning undalma qismini tashkil etadi. Hadis matnlarida, asosan, kishilarning nomlari undalma boʻlib keladi. Bunda yana bir eʼtiborli holat kuzatiladi. Rasululloh (s.a.v.)ning oila aʼzolari nomlari, sahobalar nomlari undalma sifatida qoʻllanilganda ismlardan oldin *“Yo ...”* tarzida murojaat qilinadi: *Abu Masʼud (Ansoriy) roziyallohu anhu aytdilar: “Rasululloh (s.a.v.)ga bir kishi: “Yo Rasululloh, falonchi namozni choʻzib yuborganidan namozimni buzib qoʻyishimga oz qoladi”, dedi... (Buxoriy rivoyati).*

Hadis matnlarida Allohga qaratilgan undalmalar shaklan turlicha hollarda kuzatiladi, ammo ularning mohiyati bir xildir: *yo Alloh, yo Rob, yo Robbim, Parvardigorim, Yaratgan egam* kabi. Masalan: *Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (s.a.v.) menga suyanib turib, shunday deganlarini eshitganman: Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Rasululloh (s.a.v.)ning bir majlis-oʻtirishdan qoʻzgʻolmaslaridan oldin: “Parvardigoro, meni magʻfirat qilgin...” (Buxoriy rivoyati) singari.*

Buyruq gaplarning faolligi hadis matnlarida qatʼiy rioya qilishga daʼvat etish bilan bogʻliq: *“Boshliq boʻlmasingizdan avval ilmni chuqur oʻrganing!”*(Buxoriy

rivoyati). Ammo Allohga murojaat qilinganda, fe'ning buyruq shaklining semantik-grammatik mohiyati o'zgaradi va stilistik mazmun kasb etadi. Buyruq shaklida ifodalangan kesimda yalinish, yolverish, iltijo ottenkalari mujassam bo'ladi: *Rasululloh (s.a.v.) javob berdilar: "Ilohi, o'zimni ham, kori-borimni ham O'zingga topshirdim, savobingdan umid qilib va azobingdan qo'rqib senga yuzimni qaratdim"* (Buxoriy rivoyati).

Hadis matnlari sintaksisidagi ko'zga ko'rinadigan eng asosiy xususiyatlardan biri gap qurilishi ko'chirma gapli qo'shma gaplardan tashkil topganligidir. Ya'ni odatda hadis matnlarining sanad va matn qismlariga ajralishini yuqorida ham ta'kidlab o'tganmiz. Masalan: *"Oisha onamiz aytganlar: "Rasululloh (s.a.v.) sahobalariga qudrati yetadigan ishni buyurgan edilar, sahobalar: "Biz siz singari emasmiz-ku, Olloh sizning ilgarigi va kelgusi gunohlaringizni kechirgan", – dedilar. Rasulullohning g'azablari kelganlari yuzlaridan bilindi: "Oralaringizda eng taqvoliroq va Ollohn taniydigan kishi menman", – deb javob qildilar"* (Buxoriy rivoyati).

Hadis matnlarida undalmalarning ishtiroki, mazmunning ochilishidagi asosiy vositalardan biridir. Hadis nutqida undalmalar, asosan, Alloh, Payg'ambar (s.a.v.)ning sahobalari va oila a'zolari yoki butun omma (II-III shaxs) bo'lib keladi.

Hadis matnlarining asosiy qismlarida Payg'ambar (s.a.v.)ga murojaat qilinib, o'z savollariga javob olinadi: *Ibn Abbos roziyallohu anhu: "Janob Rasululloh huzurlariga Abd-ul-Qays qabilasidan bir jamoa keldi. Sollallohu alayhi vasallam: "Bu qaysi jamoa?", – deb so'radilar. Mehmonlar "Biz Rabia qavmidanmiz", – deb aytishdi. "Xush kelibsizlar, marhamat, xijolatsiz kelavingiz!", – dedilar, Rasululloh alayhi. "Yo Rasululloh, biz sizning oldingizga Rajab oyidagina kela olurmiz (rajab oyida qabilalar aro urush man' qilingan) ..."* (Buxoriy rivoyati)

Yuqoridagi matnlarda adresatlardan "Yo Rasululloh" deb murojaat qilingan va o'z fikrlari, savollari, muammolariga adresantdan javob olishgan. Ya'ni so'roq va darak gaplarda undalmalar qo'llanilyapti. Bu tarzda murojaat qilish hurmat ifodasining o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi. Quyidagi namunada Payg'ambarimiz (s.a.v.) nutqlaridagi undalmalarni ko'rib chiqamiz: *Maoz ibn Jabal rivoyat qiladilar: "Yo, Maoz, bilurmisen Alloh taoloning o'z bandalaridagi haqi nedur?", – dedilar"* (Buxoriy rivoyati). Bunda "Yo Maoz" deb murojaat qilinyapti. Hadis matnlarida bu kabi *ey, yo* kabi chaqirish undovlarini undalma bilan birgalikda qo'llash orqali nutq ta'sirchanligi kuchaytirilgan.

Hadis matnlarida undalmalar nafaqat undov bilan birgalikda, balki so'z birikmasi tarzida, ya'ni kengaygan holatda ham uchraydi: *Shaqiq roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Yo Amir al-mo'minin, siz bundan qo'rqmasangiz bo'lur, chunkim siz birlan o'sha fitna o'rtasinda bir yopiq eshik g'ov bo'lib turibdir"* (Buxoriy rivoyati). Yuqoridagi namunalarda "Ey Muhammad ummati", "Yo Amir al-mo'minin", "Ey Allohning Rasuli" undalmalari birikmali qo'llanilib, undov (*ey, yo*) – qaratqich (Muhammad (s.a.v), mo'minin, Alloh) – qaralmish (ummati, Amir, Rasuli) birikkan holatda qo'llanilgan.

Hadis matnlaridagi oilaviy murojaatlarda ham farzandlari tomonidan Payg'ambar (s.a.v.) ga "Ey Ollohnig Rasuli" degan deya murojaat qilinadi: *Oisha roziyallohu anhodan: "...Ey Allohning Rasuli, vitr o'qishdan oldin uxlamaysizmi?", – dedim. U zot: "Ey Oisha, albatta, mening ko'zlarim uxlar, qalbim uxlamas",*

– dedilar”. Bunday holat hadis matnlariga rasmiy ohangni yuklaydi va uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Hadis matnlarida kirish bo‘laklar, asosan, gapning boshida qo‘llanadi: Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: *“Albatta, Quyosh va Oy Allohning oyatlaridan ikki oyatdir...”* (Buxoriy rivoyati). Kirish bo‘laklar leksema, so‘z birikmasi va gap shaklida ham kelishi mumkin: 1) so‘z shaklida: *Abdulloh ibn Abbos (r.a.): “Albatta, osmonlar-u yerning yaratilishida va kecha-yu kunduzning almashinib turishida aql egalari uchun belgi bordir...”* (Buxoriy rivoyati); 2) so‘z birikmasi shaklida: *Huzayfa (r.a.): “Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Jonim izmida bo‘lgan zotga qasamki, sizlar, albatta, sizlar yaxshilikka buyurib, yomonlikdan qaytarasizlar, yo Alloh ularni tark qilganingiz sababli sizlarga azob yuboradi. Undan so‘ng duo qilsangizlar mustajob bo‘lmaydi”* (Buxoriy rivoyati); 3) gap shaklida: Ibn Abbos (r.a.) dan rivoyat qilinadi: *“Sa‘d ibn Ubodaning onasi u g‘oyibligida vafot etdi. Bas, u: “Ey Allohning Rasuli, onam mening g‘oyibligimda vafot etdi. Agar uning nomidan biror narsa sadaqa qilsam, unga manfaati bo‘ladimi?”, – dedi. “Ha”, – dedilar u zot. “Sizni guvoh qilib aytamanki, mevali bog‘im unga sadaqa bo‘lsin”, – dedi* (Buxoriy rivoyati). Shuningdek, dissertatsiyada hadis matnlaridagi kirish bo‘laklar ma‘noviy guruhlarda ajratilib, uslubiy jihatlari o‘rganilib chiqildi. Jumladan, so‘zlovchining anglatilayotgan fikrga ishonch darajasini ifodalaydigan kirish bo‘laklar. Bu vazifada, asosan, modal so‘zlar keladi va boshqa so‘z turkumidagi so‘zlar ham qo‘llanadi: Abu Hurayra (r.a.) dan rivoyat qilinadi: *“...Albatta, bu qabrlar o‘z ahli uchun zulmat ila to‘ladir. Albatta, Alloh azza va jalla ularning mening namozim ila munavvar qilur”, – dedilar; Xuzayfa rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v.) bizga: “Asli, halollik odamlarning qalb tomirlariga jo qilinib osmondan nozil qilingandir, keyin ersa, Qur‘oni karim nozil bo‘lib, uni Qur‘ondan o‘qib bildilar, sunnatdan o‘rgandilar” – dedilar”* (Buxoriy rivoyati).

Shuningdek, mazkur faslda sintaktik hodisalardan biri – takrorlar o‘rganilib, hadis matnlarida ulardan aytilayotgan fikrni alohida ta’kidlash, tasdiqlash, kengroq va batafsilroq ifodalash maqsadida foydalanilgan. Hadis matnlarida, asosan, takrorlar Muhammad (s.a.v.) ning nutqlarida qo‘llanilgan va u zotning nutqlarini yanada ta’sirlilik darajasini orttirishga xizmat qilgan. Takror yordamida qo‘llangan ayrim affiksalar, so‘z, so‘z birikmasi yoki gaplar keyingi komponentlar tarkibida takroran qo‘llanishi orqali yuqoridagi vazifani bajargan. Zero, hadislarining birida Rasululloh (s.a.v.) ning takrorlardan foydalanishlari haqida quyidagicha hadis yetib kelgan: *Anas ibn Molikdan: “Rasululloh (s.a.v.) biror so‘z aytsalar, tushunarli bo‘lishi uchun uch bor qaytarar edilar. Salom bersalar, uch marta salom berardilar”* (Buxoriy rivoyati). Leksik takrorlarga namuna: Termiziydan rivoyat qilinadi: *“Kim bomdodni jamoat bilan o‘qisa, so‘ngra quyosh chiqquncha Allohni zikr qilib o‘tirsas, keyin ikki rakat namoz o‘qisa, uning uchun haj va umraning ajridek bo‘lur. To‘liq, to‘liq, to‘liq”;* Abu Hurayra (r.a.) dan rivoyat qilinadi: *“...Yo‘q, astag‘firulloh! Yo‘q, astag‘firulloh! Yo‘q, astag‘firulloh!...”* (Buxoriy rivoyati). Dissertatsiyada affiksalar, gap shaklidagi takrorlar ham tahlil qilingan.

“Hadis matnlarida monologik va dialogik nutq shakllarining uslubiy imkoniyatlari” faslida hadis matnlariga xos dialogik shakl turlaridan quyidagilarni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

1. Savol-javob uyg‘unligi, tasavvuriy dialog, ritorik so‘roq gaplar, auditoriyaga savol berish kabi. Keltirib o‘tilganlarning barchasida adresant va adresatning o‘ziga

xos munosabati mavjudligi ularning dialogik nutq ko‘rinishlari qatorida keltirilishiga asos bo‘ladi, masalan: savol-javob uyg‘unligi hadis matnlarining ko‘pchilik qismida salmoqli o‘rin tutuvchi dialoglarda namoyon bo‘ladi. Hadislar matni, odatda, dialog tarzida bayon etiladi. Bunda, asosan, payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ga savol berish va javob olish yoxud payg‘ambarimizning savol berish orqali biror narsa, odat, holatni izohlashlarini kuzatamiz: *Rasululloh (s.a.v.)dan so‘radilar: “Yo, Rasululloh, musulmonlarning afzali qaysi kishidir?” “Qo‘lidan va tilidan boshqa musulmonlar ozor topmagan kishidir”, – deb javob berdilar (Buxoriy rivoyati).*

Ushbu namunadan ko‘rinib turibdiki, bunda savol-javob orqali tinglovchilar o‘zlari tushunmagan masalalarga javob olishmoqda, lekin ayrim hollarda hadislardagi Rasululloh (s.a.v.)ning monolog tarzidagi bayon etilgan fikrlarida ham savol-javob uyg‘unligiga erishiladi. Bunday hadislarda ko‘p hollarda auditoriyaga savol beriladi. Bunda, odatda, adresatdan javob kutilmaydi, balki adresant o‘z savoliga o‘zi javob beradi: *Maoz ibn Jabal rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v.) menga: “Yo Maoz, bilurmisen, Alloh taoloning o‘z bandalaridagi haqqi nedur?”, – dedilar. Men: “Alloh taolo va uning Rasuli yaxshiroq bilgaydur!”, – dedim. Janob Rasululloh: “Alloh taologa ibodat qilib, unga hech narsani shirk keltirmasliklaridadur”, – dedilar. So‘ng: “Yo Maoz, bilurmisen, bandalarining Alloh taolodagi haqlari nedur?”, – dedilar. Men: “Alloh taolo va uning Rasuli yaxshiroq bilgaydur!”, – dedim. Janob Rasululloh: “(Agar bandalar Alloh taoloning haqini ado etsalar) ularni azoblamasligidur”, – dedilar (Buxoriy rivoyati).*

Yuqoridagi misolda so‘zlovchi savol va javob uyg‘unligi orqali tinglovchini diqqatini ana shu masalaga qaratib, uslubiy ta‘sirchanlikka erishishni ko‘zda tutadi.

2. Tasavvuriy dialogda yashirin muloqotchi bilan so‘zlashish nazarda tutiladi. “Diniy va‘zlar kommunikativ aktining asosiy xususiyati unda ishtirokchilarning noodatiy tarkibi namoyon bo‘lishidadir. Odatiy adresant (va‘zxon) va adresat (omma) uchinchi bir “yashirin muloqotchi” – Xudoning bir vaqtning o‘zida ham “yashirin adresant”, ham “yashirin adresat” sifatida muloqotda ishtirok etishini nazarda tutadilar”. Haqiqatan ham, diniy matnlarda oddiy matnga xos bo‘lmagan adresant-adresat munosabatini kuzatamiz. Agar kundalik diskursda so‘zlovchi o‘z fikrlarini tinglovchiga yetkazishi va tinglovchi uni qabul qilishi asosiy sanalsa, hadis matnlarida adresant o‘z nutqida Yaratgan nomidan gapiradi, uning buyruqlari, ko‘rsatmalarini adresat – ommaga yetkazadi. Bunda tinglovchilar yashirin adresant – Xudoga quloq tutadilar. Shu bilan birga, duo, iltijo qilinganda ana shu yashirin muloqotchi – Xudo adresat maqomiga o‘tadi. Shu holatda adresant nutqida yashirin muloqotchi ham ishtirok etadi: *Ibn Abbas roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v.) kechasi tahajjudda quyidagi duoni o‘qir edilar: “Ilohi, jamiki maqtovlar senga xosdir! Sen Yer-u osmonlarning va undagi borliqning yaratuvchisi va boshqarib turuvchisidirsan, jamiki maqtovlar senga hosdir! Sen Yer-u osmonlar va undagi barcha narsalarning egasidirsan, jamiki maqtovlar senga xosdir! (Buxoriy rivoyati)*

Bunda yashirin muloqotchining mavjudligiga to‘la ishonch bilan muloqotga kirishiladi. Shuningdek, ushbu hadisda nutqni quyidagicha alohida tavsiflashimiz ham mumkin: a) *“Ilohi, jamiki maqtovlar senga xosdir!”*; b) *“Sen Yer-u osmonlarning va undagi borliqning yaratuvchisi va boshqarib turuvchisidirsan,*

jamiki maqto'vlar senga bo'lsin!"; c) *"Sen Yer-u osmonlar va undagi barcha narsalarning egasidirsan, jamiki maqto'vlar senga bo'lsin!"*. Ushbu hadisda fikrlar "a" variantda Rasululloh (s.a.v.) o'z nutqini Xudoga murojaat bilan boshlamoqda va "b" variantda yangi nutqni aytib, unda "a" variantdagi qo'llagan "barcha maqto'vlar senga xosdir" birikmasini takrorlayapti; "c" variantda esa Alloh barcha narsalarning yaratuvchisi, boshqarib turuvchisi" ekanligini ta'kidlash bilan kifoyalanibgina qolmay, "barcha narsalarning egasidirsan", deb fikrni to'ldiryapti va "barcha maqto'vlar senga xosdir" jumllarini uchinchi bor ta'kidlamoqda.

XULOSA

1. O'zbekcha diniy matnlarning lingvostilistik xususiyatlarini tadqiq etish tilshunoslikdagi eng kam o'rganilgan, shuningdek, keyingi davrda katta ilmiy qiziqish bildirilayotgan dolzarb masalalardan biri bo'lib, hadis matnlarining leksik-semantik va grammatik jihatdan o'ziga xosligi bu mavzuni tadqiqot obyekti sifatida o'rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

2. Tilshunoslikda diniy matnlar tili va uslubini belgilash munozarali masalalardan biri hisoblanadi. Uslubiyat bo'yicha yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalarda u goh vazifaviy uslublar tizimidagi mustaqil uslub, goh biror uslub doirasida qaraluvchi janr sifatida talqin qilinadi. Bu holni diniy matnlar tilining yetarli darajada o'rganilmaganligi bilan izohlash mumkin.

3. O'zbekcha diniy matnlarning shakllanishi va taraqqiy etishi islom dinining Markaziy Osiyo hududida tarqalishi va rivojlanishi bilan bog'liq. O'zbekcha diniy matnlarning shakllanishida Qur'oni Karim, hadislar, payg'ambarlar hayoti bilan bog'liq rivoyatlar asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

4. Hadis matnlarining o'ziga xos turg'un shakli-mazmuniy strukturasi – sanad va matn qismlariga ajralishi, sanaddagi qavatlangan nutq hodisasi lingvistik aspektida o'rganilishi eng muhim hodisalardan biridir.

5. O'zbekcha hadis matnlari leksik-semantik jihatdan o'ziga xos xususiyatlariga ega. O'zbekcha diniy matnlar leksikasini mavzu talabidan kelib chiqib, bir qator kichik guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin. Shuning uchun hadis matnlarida shariat bilan bog'liq masalalar haqida ko'p so'z yuritiladi. Hadis matnlarida qo'llanilgan leksik birliklarni shariat talablari, diniy ijtimoiy nufuz, mavqe, diniy urf-odatlarining tarqalishi, shuningdek g'ayb dunyosi bilan bog'liq tushunchalarni ifodalashiga qarab guruhlariga ajratish mumkin. Diniy tushuncha va atamalarni o'rganish kishilarning diniy tasavvur va dunyoqarashining shakllanishida, sharqona axloq va odobning mustahkam bo'lishida muhim ijtimoiy omil va vosita hisoblanadi.

6. Hadis matnlarining til xususiyatlarini o'rganish ularni ham funksional uslublar doirasida qarashni taqozo etadi. Til birliklari va ularning matnda uslubiy vosita sifatida qo'llanishidagi o'ziga xosliklar hadis matnlari va boshqa funksional uslublar orasida yaqin aloqa hamda shu bilan birga ayrim farqlar mavjudligini ko'rsatadi.

7. Diniy matnlar grammatik jihatdan tadqiq etilganda dastlab ko'zga tashlanadigan holat shuki, matnlarda ot turkumiga oid so'zlar ko'p qo'llaniladi. Otlar, asosan, islom dini bilan bog'liq tushunchalarni ifodalab, ularning uslubiy vosita sifatida har xil ma'no nozikliklarini anglatishi kuzatiladi. Bu holat, ayniqsa,

ko'plik, kelishik, egalik, fe'lga xos bo'lgan grammatik kategoriyalarning qo'llanilishida yaqqol namoyon bo'ladi.

8. O'zbekcha hadis matnlari payg'ambarlar hayoti, diniy vazifalar yuklaganligi va ularning asoslanganligi uchun aniqlik va ifodalilikni ta'minlash maqsadida olmosh va son turkumlariga oid so'zlardan ham foydalanilgan. Ularning vazifaviy-uslubiy imkoniyatlari matnda o'z ifodasini topgan.

9. Hadis matnlarida darak, so'roq, buyruq gaplar qo'llanilish darajasiga ko'ra farqlanib turadi. Hadis matnlari uslubi hikoyachilikka asoslanmagani uchun darak gaplar, payg'ambar so'zlari keltirilganda buyruq gaplardan foydalaniladi. So'roq gaplar esa, asosan, sahobalar nutqida uchraydi.

10. Hadis matnlarida sodda gaplarga nisbatan qo'shma gaplar ko'p qo'llaniladi. Qo'shma gaplar murakkab shaklda bo'lib, ba'zan ularning tarkibi bir necha gaplardan iborat bo'lishi mumkin.

11. Hadis matnlarida eng ko'p qo'llaniluvchi uslubiy vositalardan biri murojaatlar hisoblanadi. So'zlovchining nutqi Allohga, payg'ambarga, sahobalarga qaratilishi mumkin. Murojaat qilishda nutq qaratilgan shaxsning ijtimoiy nufuzi, dinga munosabati kabi xususiyatlar hisobga olinadi va shunga mos so'zlar qo'llaniladi.

12. O'zbek tilshunosligi uchun nisbatan yangi yo'nalish bo'lgan diniy matn lingvistikasi ustida olib boriladigan tadqiqotlar diniy soha faoliyatini ilmiy tashkil etishga, soha vakillarining tildan foydalanishdagi madaniylik va me'yoriylik darajasining takomillashishiga ko'maklashadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDED SCIENTIFIC DEGREES
DSc.03/30.12.2019.Phil.05.02 AT FERGANA STATE UNIVERSITY**

**FERGANA BRANCH OF TASHKENT UNIVERSITY OF INFORMATION
TECHNOLOGY NAMED AFTER MUHAMMAD AL-KHWARAZMI**

KHAMDAMOVA OYGUL MAKHKAMJONOVNA

**LINGUOSTYLISTIC STUDY OF HADITH TEXTS
(based on translated texts in Uzbek)**

10.00.01 – Uzbek language

**ABSTRACT
of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHILOLOGICAL sciences**

Fergana – 2025

The theme of doctoral (PhD) dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under № B2023.1PhD/Fil3066.

The dissertation was performed at the Fergana branch of Tashkent University of Information Technology named after Muhammad al-Khwarazmi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume) on the website of Fergana State University (www.fdu.uz) and the information and education portal "Ziyonet" at (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	Muminov Sidikjon Mirsobirovich, Doctor of philological sciences, professor
Official opponents:	Odilov Yorqinjon Raxmonaliyevich Doctor of philological sciences, professor Amonturdiyeva Shoira Ravshanovna Doctor of philosophy on Philology (PhD), associate professor
Leading organization:	Kokand state pedagogical institute

Defense of the dissertation will take place on 20 03 2025 at 8⁰⁰ at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, B.Marghinani str., Fergana, 100151. Tel.: (+99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation is available in the information and Resource Center of Fergana State University (registered under № 474). Address: 19, Murabbiylar str., Fergana, 100151. Tel.: (+99873) 244-71-28.

The abstract of the dissertation is distributed on 24 03 2025.
(Mailing report No. 3 dated 27 03 2025).



A.Mamajonov
Chairman of Scientific Council
awarding scientific degree,
Doctor of Philological Sciences, Professor.

M.T.Zokirov
Scientific secretary of the Scientific Council,
awarding scientific degree,
Candidate of Philological Sciences, Professor.

G.Z.Rozikova
Chairman of the Scientific Seminar at the
Scientific Council, Awarding scientific degree,
Doctor of Philological Sciences, Professor.

INTRODUCTION

(Abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD))

The actuality and necessity of the topic. In world linguistics, significant scientific advancements have been made in the study of the lexicon and phraseology of religious texts, as well as in analyzing the lexical-semantic and stylistic features of religious lexical units and classifying them thematically. Religious texts, which have endured throughout centuries, have consistently called humanity toward goodness, virtue, harmony and brotherhood, emphasizing the exaltation of human values. From this perspective, a more in-depth examination of the linguistic characteristics and lexical composition of religious texts, as well as their unique stylistic features, is of critical importance as a linguistic issue. This necessitates further scholarly inquiry and the dissemination of these findings to the global academic community.

In global linguistics, religious texts are considered a crucial foundation for comprehensively studying the national and cultural characteristics, beliefs, way of life, ethnic history, and aesthetic perspectives of different peoples. In global linguistics, the study of religious texts based on modern linguistic methodologies is considered a key factor in advancing the field. Additionally, since our nation's independence, one of our primary tasks has been the comprehensive study of the scientific and literary heritage left by our great ancestors. From this perspective, the hadith texts preserved and transmitted by our world-renowned muhaddith scholars are among the linguistic sources that require thorough investigation. Examining religious texts in the Uzbek language within the framework of functional styles, analyzing their linguistic and extralinguistic aspects, and determining their place within the functional-stylistic system of the Uzbek language has become a pressing issue in contemporary linguistics.

As a result of achieving long-awaited independence, the Uzbek people gained the privilege of studying their national, religious, and spiritual heritage, as well as their history. In these years, extensive opportunities were created for its comprehensive study. From the podium of the 72nd session of the UN General Assembly, our President stated, *“We consider it our most important task to convey the true humanitarian essence of Islam to the global community.”* Through these words, he raised the issue of deeply instilling the essence of Islam – an inseparable part of our spirituality and values – into the consciousness of our people.

